

TO'LOV XIZMATLARINI KO'RSATISH TO'G'RISIDA SHARTNOMANING NAMUNAVIY SHARTLARI (BUNDAN BUYON MATNDA – “NAMUNAVIY SHARTLAR”)

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar
2024 yil “09” sentabrdan e'tiboran amal qiladigan “2.0”-sonli versiyasi

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Tizim / CLICK tizimi	Jismoniy shaxslarga Merchant foydasiga To'lovlarni amalga oshirish maqsadida o'z hisobvarag'ini boshqarish uchun elektron topshiriqlar uzatish imkonini beradigan, shuningdek Merchantga Internet tarmog'i orqali, shu jumladan CLICK tizimining qismi hisoblangan Click One platformasi orqali uning nomiga tushgan To'lovlar hisobini yuritish imkonini beradigan apparat-dasturiy vositalar, ulanish kanallari va boshqa texnologik infratuzilmalar majmui.
1.1.1. click One platformasi (PLATFORMA)	Merchantlarga ommaviy API tizimidan foydalanilgan holda To'lovchilar uchun Ilovalar joylashtirish imkoniyatini taqdim qiladigan CLICK tizimining to'lov interfeysi vositasi.
1.2. To'lov tashkiloti	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli lisenziyasiga ega, to'lov xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan elektron pullardan foydalanib to'lovlarni qabul qilish va ishlov berish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuniga zid bo'lmagan boshqa xizmatlarni ko'rsatish huquqiga ega tashkilot. Elektron pullardan foydalanib to'lovlarni qabul qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish doirasida To'lov tashkiloti elektron pullar tizimi operatori sifatida ham faoliyat yuritadi. Ilovalarni joylashtirish huquqini taqdim qilish doirasida Platforma huquqiy egasi sifatida ham amal qiladi.
1.3. CLICK tizimi / Platformaning huquqiy egasi	O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan CLICK tizimi / click One platformasi uchun mutlaq mulkiy huquqlarga ega «CLICK» Aksiyadorlik jamiyati.
1.4. CLICK tizimi “Merchant” moduli (“Merchant” moduli)	Merchantga o'tkazilgan to'lov holati to'g'risida real vaqt rejimida elektron shaklda axborot olish imkonini beradigan CLICK tizimi moduli.
1.5. Merchant	sotilayotgan tovarlar (bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar) uchun To'lovchidan pul mablag'larini oluvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan internet tarmog'i va PLATFORMA orqali ham, jamiyat manfaatlarida yoki muayyan toifadagi shaxslar manfaatlarida xayriya faoliyatini amalga oshiruvchi va O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va xayriya pullarini qabul qiluvchi tashkilotlar, shuningdek, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, o'z vakolatlari doirasida qonunchilikda belgilangan funksiyalarni bajarish uchun To'lovchidan pul mablag'larini oluvchi budjet tashkilotlari.
1.6. To'lovchi	Bankda bank depozit hisobvarag'ini ochgan va/yoki onlayn plastik karta va elektron hamyon egasi hisoblanmish jismoniy shaxs.
1.7. Ishtirokchilar	To'lovchi, Bank, Merchant, To'lov tashkiloti.

1.8. Billing (hisob) tizimi	Mijozlarga yoki boshqa iste'molchilarga taqdim qilingan Merchant tovarlari (xizmatlari, ishlari), ularning tarifikasiasini hisobga olish, to'lovga hisobvaraqlarni taqdim qilish va tushgan to'lovlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan Merchant dasturiy majmui.
1.9. To'lov	To'lovchi tomonidan Merchant foydasiga to'lanadigan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi pul mablag'lari va milliy valyutada nominasiya qilingan elektron pullar. To'lov uni yuboruvchini identifikasialash imkonini beradigan, bank To'lovchining hisobvarag'idan pul mablag'larini chegirib olish uchun asos bo'ladigan CLICK tizimi va/yoki Platforma tomonidan elektron xabarnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.
1.10. Xizmat haqi (haq)	ko'rsatilgan xizmatlar uchun To'lov tashkiloti tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan to'lovlar uchun to'lanadigan haqni anglatadi. Haq miqdori, Namunaviy shartlarning 4-bo'limiga muvofiq, Namunaviy shartlar asosida to'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada belgilangan.
1.11. Hisobot davri	Yilning har bir ketma-ket kalendar oyi. Oyning birinchi kuni – Hisobot davri boshlanishi, oyning so'nggi kuni – Hisobot davri oxiri hisoblanadi.
1.12. To'lov tashkiloti web-sahifasi	Internet tarmog'ida https://click.uz manzili bo'yicha joylashtirilgan, Tizim va undan foydalanish shartlari to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oluvchi web-sahifa.
1.13. Avtorizasiyalash	Billing tizimiga ega bo'lgan Merchantning To'lov tashkiloti tomonidan to'lovga ishlov berilishiga ruxsati.
1.14. Elektron pullar	CLICKning elektron shaklda saqlanadigan hamda CLICK elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari.
1.15. Merchantning shaxsiy kabinet	To'lov tashkiloti tizimida Merchant rekvizitlari, aloqa bog'lash axboroti, elektron hujjat aylanishi parametrlari, statistika, hisobotlar va Shartnoma ijrosi uchun kerakli boshqa axborotni o'z ichiga oladigan server bo'limi.
1.16. Identifikasialash vositalari	Tizimda Merchantni identifikasialash imkonini beradigan ma'lumotlar (ulanishda beriladigan maxfiy kalit, merchant id, secret key, shaxsiy kabinetga kirish huquqi va boshqa uzatilgan ma'lumotlar).
1.17. Qabul qilingan to'lovlar reestri	Shaxsiy kabinetda tuziladigan qabul qilingan to'lovlar to'g'risida «CLICK» hisobotlari: https://merchant.click.uz . Reestr Merchant tomonidan tanlangan vaqt davriga nisbatan shakllantiriladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. To'lov tashkiloti quyidagi xizmatlarni (bundan buyon matnda – “Xizmatlar”) ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni ta'minlash, shu jumladan, bank kartalari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitob ishtirokchilariga ma'lumotlarni yig'ish, \ ishlov berish va taqdim etish xizmatlarini ko'rsatish;

- hisob-kitob ishtirokchilariga dasturiy ta'minotga (ma'lumotlar bazasiga) kirish imkonini berish, ya'ni dasturiy ta'minotning qo'shimcha funksiyalarini taqdim etgan holda, click One PLATFORMAsiga ilova joylashtirish qoidalariga muvofiq MERCHANTning ilovasini PLATFORMAga joylashtirish;

- elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan To'lovlarni qabul qilish va ishlov berish, bir vaqtning o'zida ushbu To'lovlar ishtirokchilari o'rtasida komissiya haqlarini taqsimlash;

- To'lov tashkiloti tomonidan uchinchi shaxslar ishtirokisiz qabul qilingan to'lovlar bo'yicha benefisiar foydasiga pul mablag'lari o'tkazmalari amalga oshirilishida benefisiar – MERCHANT va/yoki uning sheriklari / kontragentlari va To'lov tashkiloti o'rtasida axborot-kommunikasiya va texnologik o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

Merchant esa qayd etilgan Xizmatlarni qabul qilish va ular uchun Shartnomaga asosan haq to'lash majburiyatini oladi.

2.2. To'lov tashkiloti xizmatlar ko'rsatish maqsadida Merchantning CLICK tizimiga va/yoki Platformaga ulanishini amalga oshiradi.

2.3. To'lov tashkiloti xizmatlari uchun haq to'lash shartlari va hisob-kitob qilish tartibi Namunaviy shartlarning 4-bo'limida va Namunaviy shartlar asosida to'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomada (bundan buyon matnda – “Shartnoma”) belgilangan.

2.4. Elektron pullardan foydalanilgan holda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Taraflarning o'zaro hamkorligi (Namunaviy shartlarning 2.1-kichik bandi) www.click.uz web-sahifasida joylashtirilgan «CLICK» elektron pullardan foydalanish tizimi qoidalarida (bundan buyon matnda – “Qoidalar”) qayd etilgan.

2.5. Elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar, agar Shartnomada va (yoki) Qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, To'lovchining ko'rsatmasi bo'yicha ularni Merchantga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.6. Elektron pullar bilan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasining “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuniga va Qoidalarga muvofiq Operatsiya summasi miqdoriga qo'yilgan cheklovlar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

3. TARAFLAR HUQUQ VA MAJBURIYATLARI. KAFOLATLAR

3.1. To'lov tashkiloti quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

3.1.1. Tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning texnik parametrlari bo'yicha ulanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish. Bankka Merchant foydasiga qabul qilingan barcha to'lovlar to'g'risida axborot uzatilishini amalga oshirish.

3.1.2. Namunaviy shartlarga 1-sonli Ilovada nazarda tutilgan tartibda Merchantning tizimga ulanishini ta'minlash.

3.1.3. To'lovchilardan pul mablag'larini va elektron pullarni qabul qilish bo'yicha xizmatlardan va Tizimdan tun-kun rejimida foydalanishni, shuningdek axborot va kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilgan holda elektron xabarnomalar uzatilishini va To'lovchilardan to'lovlar bo'yicha axborot almashinuvi bilan bog'liq boshqa harakatlar bajarilishini, shu jumladan rejali va rejadan tashqari profilaktika ishlari o'tkaziladigan davrlar istisno qilingan holda, to'lovlar to'g'risidagi axborot qabul qilib olinishi va uzatilishini ta'minlash.

3.1.4. Merchantni Tizim ishidagi har qanday nosozliklar to'g'risida, shuningdek Tizim uchun aloqa xizmatlarini ta'minlaydigan kommunikasiya tizimlaridagi har qanday nosozliklar to'g'risida xabardor qilish.

3.1.5. Merchantga uzatilayotgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning muvofiqligi, shuningdek Bankka uzatiladigan ma'lumotlarning bir xilligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.1.6. O'z yuridik manzili va (yoki) bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, bu haqda Merchantni uch kunlik muddatda yozma shaklda yoki elektron pochta orqali kerakli hujjatlar ilova qilingan holda xabardor qilish.

3.1.7. Amaldagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar talablariga asosan, ma'lumotlar, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishini va axborot xavfsizligini ta'minlash.

3.1.8. To'lovlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran 5 (besh) yildan kam bo'lmagan muddat davomida to'lovlar to'g'risidagi axborotning tegishli saqlanishini ta'minlash.

3.1.9. Merchant talabnomasi bo'yicha Shaxsiy kabinetda va (yoki) elektron pochta orqali Bekor qilingan to'lovlar reestrini shakllantirish va taqdim qilish.

3.1.10. Merchantdan Shaxsiy kabinetda va (yoki) elektron pochta orqali Bekor qilingan to'lovlar boyicha aksept olish.

3.1.11. Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar uchinchi shaxsga o'tkazilgan taqdirda, bu haqda Merchantni uch kunlik muddatda xabardor qilish.

3.1.12. Merchant tizimga ulanganidan so'ng, unga Shaxsiy kabinet orqali o'tkazilgan to'lovlar to'g'risidagi axborotni taqdim qilish.

3.1.13. Shartnomaning 8-bo'limida qayd etilgan Merchant bank hisobvarag'i ko'rsatilgan holda To'lov to'g'risida axborotni shakllantirish.

3.1.14. Har oyda Tizim orqali ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini tuzish va uni Merchantga taqdim qilish.

3.1.15. To'lov tashkiloti Namunaviy shartlarning 2.1-bandiga muvofiq to'lov xizmatlarini faqat To'lovchining farmoyishida qayd etilgan shartlarga asosan amalga oshiradi.

3.1.16. Bekor qilingan to'lovlar uchun haq faqat qaytarish amalga oshirilgan joriy oyda chegirib qolinmaydi.

3.1.17. Merchantning identifikasiyalash vositalarini himoya qilish bo'yicha huquqiy tashkiliy va texnik choralar ko'radi.

3.2. To'lov tashkiloti quyidagilarga haqli:

3.2.1. Merchantdan Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni qat'iy bajarishni talab qilish.

3.2.2. Reestrlardagi va (yoki) Shaxsiy kabinetdagi ma'lumotlarning Merchantning ichki hisobga olish qaydi bilan farqlari yuzaga kelgan holatda, Merchantdan ushbu farqlar sabablarini aniqlashda ishtirok etishini talab qilish.

3.2.3. To'lovni amalga oshirish shartlari va qoidalari to'g'risidagi axborot, shuningdek To'lov tashkilotini individualizasiyalash vositasi hisoblangan tovar belgisi yoki boshqa tasvirlarni Merchant web-sahifasi va reklama materiallarida joylashtirilishini talab qilish.

Merchant faoliyatida, To'lov tashkilotining fikricha, katta zararlar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki To'lov tashkiloti uchun obro' yo'qotilishi xavflarini yaratishi mumkin bo'lgan vaziyatlar aniqlangan holatda, Merchant tomonidan mazkur Namunaviy shartlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar bajarilmagan holatda, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida qonun hujjatlari qo'llaniladigan faktlar aniqlangan holatlarda, ushbu aniqlangan vaziyatlar Merchant tomonidan bartaraf qilingungacha, navbatdagi kalendar kunidan e'tiboran to'xtatib qo'yish to'g'risida elektron pochta orqali bildirish xati yuborilgan holda, Taraflar o'rtasida axborot va texnologik o'zaro hamkorlik amalga oshirilishini to'xtatib qo'yish. Bunda, ushbu to'xtatib qo'yishgacha Merchant foydasiga qabul qilingan to'lovlar to'g'risida qarorlar To'lovchining farmoyishlariga asosan faqat amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan holatda o'z kuchida qoladi.

3.2.4. To'lov tashkilotining fikricha, Merchantdan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari tegishlicha bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan faoliyati to'g'risidagi axborotni, shuningdek Merchant foydasiga qabul qilingan to'lov shubhali va (yoki) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga yoki terrorizmni moliyalashtirishga yo'naltirilgan deb topilganda, Merchantdan uning faoliyati to'g'risidagi axborotni talab qilib olish.

3.2.5. Mazkur Namunaviy shartlarga bir tomonlama tartibda o'zgartishlar / qo'shimchalar kiritish. Xalqaro to'lovlarni amalga oshirishda haq miqdori o'zgargan holatda, Taraflar Shartnomaga qo'shimcha bitim imzolaydilar.

3.2.6. Merchant tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari tegishlicha bajarilmagan va (yoki) texnik xizmat tomonidan rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan taqdirda, Merchantni eng kamida 1 (bir) ish kuni oldin yozma ravishda xabardor qilish yo'li bilan CLICK tizimining tegishli modullaridan foydalanishni cheklash va to'xtatib qo'yish.

3.2.7. Merchantga To'lov tashkilotining mulki hisoblangan va Merchant tomonidan o'z majburiyatlari tegishlicha bajarilishi uchun kerakli mavjud axborot-ma'lumotnoma mahsulotini va reklama materiallarining elektron nusxalarini taqdim qilish.

3.3. Merchant quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

3.3.1. To'lov tashkilotiga Taraflar o'rtasida axborot va texnologik o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni, 3-ilovaga muvofiq hujjatlarni, shuningdek,

Namunaviy shartlarga muvofiq realizatsiya qilayotgan tovarlar (xizmatlar, ishlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish, va ilgari taqdim etilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlab borish.

3.3.2. Namunaviy shartlarga 1-sonli Ilovaga asosan Tizimga sinov ulanishini amalga oshirish.

3.3.3. Namunaviy shartlarning 4-bo'limida va Shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda haq to'lash.

3.3.4. Merchantda ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha shikoyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, Merchant Namunaviy shartlarning mazkur bandida belgilangan muddat mobaynida To'lov tashkilotiga solishtirishni amalga oshirish uchun murojaat qilishi va elektron hisob-fakturalar operatori interfeyslari orqali asoslagan holda rad etishi kerak. Merchantning ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha shikoyatlari mavjudligi to'g'risida bildirish xati olinganidan so'ng, Taraflar tomonidan komissiya tuziladi, uning vazifalari yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilishdan iborat bo'ladi. Komissiya qarori Dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va Taraflar tomonidan ijro uchun majburiy hisoblanadi.

3.3.5. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar Namunaviy shartlarga muvofiq hal qilinadi. To'lov tashkiloti tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar Dalolatnomasi yuborilgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kuni mobaynida Merchant tomonidan imzolangan ko'rsatilgan xizmatlar Dalolatnomasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha shikoyatlari to'g'risida bildirish xati olinmaganligi Merchant tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar to'liq hajmda qabul qilingan sifatida baholanadi.

3.3.6. O'z internet-saytida Tizimdan foydalanib, shu jumladan Platformada joylashtirilgan ilova orqali tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati mavjudligi to'g'risida axborotni joylashtirish.

3.3.7. To'lov tashkilotini Taraflar tomonidan Shartnoma bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar, shu jumladan, o'z nomi, yuridik manzili, amaldagi manzili, bank rekvizitlari, elektron hisob-fakturalar operatori nomi, web-sahifa manzili, realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar, ishlar) ro'yxati, boshqaruv organlari shaxsiy tarkibi yoki yakka ijroiya organi (vakil) va benefitsiar mulkdor haqidagi ma'lumotlar o'zgarishlari to'g'risida uch kunlik muddatda yozma shaklda xabardor qilish.

3.3.8. Elektron tijorat amalga oshirilishini tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar talablarini, savdo qoidalarini, xizmat ko'rsatish qoidalarini, shuningdek iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoidalariga rioya qilish. Taqiqlangan tovarlar (xizmatlar, ishlar) realizatsiya qilinishini amalga oshirmaslik.

3.3.9. Shartnoma tuzishda elektron shaklda hisob-faktura oladigan elektron hisob-fakturalar operatori nomini ko'rsatish. Elektron hisob-fakturalar operatori o'zgargan taqdirda, Merchant hisobot oyi tugaguncha bu haqda To'lov tashkilotini yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi. Aks holda, Merchant hisob-faktura olinmaganligi uchun o'zi javobgar bo'ladi.

3.3.10. Namunaviy shartlarni qabul qilish orqali Merchant CLICK elektron pullar tizimi qoidalari bilan tanishib chiqqanligini (Namunaviy shartlarning 2.4-bandi) va CLICK elektron pullar tizimiga ulanish uchun o'z roziligini berishini tasdiqlaydi, Shartnoma imzolangan sanadan e'tiboran Merchant CLICK elektron pullar tizimi ishtirokchisiga aylanadi.

3.4. Merchant quyidagilarga haqli:

3.4.1. To'lov tashkilotidan To'lovchining bank hisobvarag'iga o'tkazilgan to'lovlar summasi Shartnomaga asosan Merchantga taqdim qilingan ma'lumotda aks ettirilgan to'lovlar summasidan farq qilgan taqdirda bunday tafovut sabablarini aniqlashda ishtirok qilishini talab qilish.

3.4.2. Hisobot davrida To'lovchi tomonidan amalga oshirilgan to'lovni bekor qilish (qaytarish).

3.4.3. To'lov tashkilotidan Shartnoma shartnoma asosida zimmasiga olgan majburiyatlarning qat'iy bajarilishini talab qilish.

3.5. Merchant quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

3.5.1. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan ta'xis qilingan va faoliyat yurituvchi yuridik shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor/o'zini o'zi band qilgan shaxs) hisoblanadi;

3.5.2. Namunaviy shartlarga asosan Shartnoma tuzish va uni bajarish huquqiga va vakolatlariga ega;

3.5.3. mazkur Shartnomani imzolagan shaxs muomala layoqatiga ega, Shartnoma tuzish uchun kerakli va yetarlicha vakolatlarga ega shaxs hisoblanadi;

3.5.4. Namunaviy shartlarga muvofiq Shartnoma ijro uchun majburiy hisoblanadi;

3.5.5. Shartnoma imzolangan gacha taqdim qilingan barcha axborot to'g'ri hisoblanadi;

3.5.6. To'lovchilardan olingan mablag'lar TO'LOV TASHKILOTI tomonidan soliq agenti sifatida soliqqa tortilmaydi.

4. HISOB-KITOB-LAR TARTIBI

4.1. Haq to'lash va hisob-kitob qilish tartibi Shartnomada aniqlanadi va belgilanadi.

4.2. To'lov tashkiloti Hisobot davri tugagan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechikmay mazkur Namunaviy shartlarga 2-sonli Ilova namunasi bo'yicha elektron shaklda Dalolatnoma va hisob-faktura tuzadi. Elektron hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar Dalolatnomasi Merchantga Faktura.uz yoki Didox elektron hisob-fakturalar operatori tizimi orqali taqdim qilinadi. Merchant To'lov tashkilotidan ko'rsatilgan xizmatlar Dalolatnomasini va hisob-fakturani olgan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni mobaynida elektron hisob-fakturalar operatori tizimi orqali taqdim qilingan hujjatlarni imzolash majburiyatini oladi.

4.3. Taraflar bitim tuzilgan yoki boshqa Tarafdin bildirish xati olingan paytdan e'tiboran 45 (qirq besh) kalendar kunidan ko'p bo'lmagan muddatda, shu jumladan Shartnoma bekor qilingan holatda ham hisob-kitoblar solishtirilishini va solishtirish natijasida aniqlangan pul majburiyatlari so'ndirilishini amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5. TARAFLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun mazkur Shartnoma shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgar bo'ladi.

5.2. To'lov tashkiloti To'lovchilar oldida Merchant tomonidan o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki tegishli baxarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.3. To'lov tashkiloti Merchant tomonidan realizasiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun to'lov summasi to'lovni amalga oshirish paytida amaldagi Merchant tariflari va preyskurantlariga muvofiq bo'lmagan taqdirda javobgar bo'lmaydi. Merchant to'lov summasi amaldagi tariflar va preyskurantlarga muvofiq bo'lmagan hollarda yuzaga keladigan nizolarni mustaqil ravishda hal qiladi.

5.4. To'lov tashkiloti O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'zRQ-578-sonli Qonuni 58-moddasiga asosan javobgar bo'ladi.

5.5. Mazkur Namunaviy shartlarni bajarish masalalari bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar ularni muzokaralar orqali hal qilish bo'yicha barcha choralarni ko'radilar.

5.6. Merchant tomonidan Shartnomani tuzishda taqdim qilingan barcha ma'lumotlar to'g'ri va aktual bo'lishi lozim. To'lov tashkiloti unga Merchant tomonidan taqdim qilinadigan ma'lumotlarning to'g'riligi, aktualligi va to'liqligi uchun javobgar bo'lmaydi. To'lov tashkiloti noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan salbiy oqibatlar, shu jumladan Tipik shartlarning 3.3.6. bandida ko'rsatilgan holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.7. To'lov tashkiloti Tizim ishiga To'lov tashkiloti nazoratidan tashqari muayyan omillar ta'sir etishi (to'sqinlik qilishi) mumkinligi sababli Tizimning uzluksiz ishlov berishini kafolatlamaydi. To'lov tashkiloti Tizimning uzluksiz ishlov berishini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, biroq Tizimdagi nosozliklar To'lov tashkiloti aybisiz yuzaga kelgan taqdirda, bunday nosozliklar natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.8. To'lov tashkilotiga haq o'z vaqtida to'lanmagan holatda, Merchant har bir to'lov muddati kechiktirilgan kun uchun summaning 0,5 foizi (nol butun o'ndan besh foiz) miqdorida, lekin to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.9. Merchant haq to'lashdan bosh tortgan taqdirda, To'lov tashkiloti foydasiga Merchant haq to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima undiriladi. To'lovni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lganda to'lovni amalga oshirmaslik, asossiz tan olmaslik, kreditorlik va debitorlik qarzlari bo'yicha

solishtirish dalolatnomasini tuzishdan bosh tortish, soxta to'lovga layoqatsizlik va hokazolar to'lashdan bo'yin tovlash deb tan olinadi.

5.10. Yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni o'zaro muzokaralar orqali hal qilish mumkin bo'lmagan holatda, Taraflar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli.

6. MAXFIYLIK

6.1. Taraflar Shartnomani bajarish davomida olingan Taraflarning har biri uchun maxfiy bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar. Shartnomada maxfiy axborot deyilganida, oshkor qilinishi zararlar paydo bo'lishiga olib kelishi va (yoki) Taraflardan istalgan birining ishbilarmonlik obro'siga ta'sir etishi mumkin bo'lgan umumiy foydalanilmaydigan ma'lumotlar tushuniladi, xususan:

- To'lovchilar, operasiyalar hajmlari to'g'risida axborot;
- axborot va texnologik o'zaro hamkorlik xususiyatlari to'g'risida axborot;
- Dasturiy-apparat majmui va dasturiy ta'minot to'g'risida texnik axborot;
- tijorat va bank sirini o'z ichiga olgan axborot;
- Taraflarning tarif siyosati va Shartnomaning moliyaviy tomoni to'g'risida axborot.

6.2. Mazkur Namunaviy shartlar asosida Shartnoma tuzilishi fakti va Shartnoma predmeti maxfiy axborot hisoblanmaydi.

6.3. Taraflar mazkur Namunaviy shartlarning 6.1-bandida qayd etilgan axborotni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar, Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosi bilan bog'liq Taraflarning har biri nomidan axborot olish va berish vakolatiga ega Taraflarning mas'ul shaxslari bundan mustasno.

6.4. Mazkur Namunaviy shartlarning 6.1-bandida qayd etilgan axborot uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim qilinishi mumkin.

6.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Taraflar mazkur Namunaviy shartlarning 6.1-bandida qayd etilgan axborotni Shartnoma bekor qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) yil mobaynida oshkor qilmaslik va ushbu axborotdan o'z manfaatlarida va (yoki) uchinchi shaxslar manfaatlarida foydalanmaslik majburiyatini oladilar.

7. FORS-MAJOR VAZIYATLARI

7.1. Taraf Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi Taraf oldindan bilishi ham, oqilona choralar bilan bartaraf etishi ham mumkin bo'lmagan favqulodda xususiyatli vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan yengib bo'lmay kuch (fors-major) vaziyatlari oqibati hisoblangan holatda, majburiyatlarning bunday bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday favqulodda xususiyatli vaziyatlar quyidagilardan iborat: tabiiy ofatlar, avariya, toshqinlar, zilzila, epidemiyalar, yong'inlar, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, inqiloblar, urush harakatlari, mazkur Shartnomada belgilangan faoliyat turlarini bevosita yoki bilvosita taqiqlaydigan qonun hujjatlari, hukumat qarorlari va davlat organlari farmoyishlarining kuchga kirishi; hisob-kitoblar tizimi ishidagi to'xtalishlar / buzilishlar bilan bog'liq vaziyatlar, tizim ta'minotini amalga oshiradigan mahalliy yoki server uskunalari nazoratini qo'lga olishga qaratilgan harakatlar, tizimga xizmat ko'rsatadigan kompyuter tarmog'ida xizmat ko'rsatish rad qilinishi, tizimni ta'minlaydigan kompyuter tarmog'idagi nobarqarorlik, tizimga xakerlik hujumlari, zararli dasturiy ta'minot joriy qilinishi, dasturiy ta'minot buzilishi, ddos-hujumlar (uchinchi shaxslar tomonidan tizim orqali to'lovlarni amalga oshirishga qaratilgan qasddan harakatlar), shuningdek Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosiga to'sqinlik qiluvchi, Taraflarning oqilona nazoratidan tashqaridagi har qanday boshqa vaziyatlar.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi sababli o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar yuzaga kelgan va tugaganidan keyin uch (3) kun ichida har qanday mavjud vositalar (telefon, faks, elektron pochta va boshqalar) orqali xabardor qilishi shart. Xabardor qilmaslik yengib bo'lmay kuch vaziyatlari yuzaga kelgan Tarafni, agar ushbu vaziyatlarning o'zi bunday xabarnoma yuborilishiga to'sqinlik qilmagan bo'lsa, bunday vaziyatlarga havola qilish huquqidan mahrum qiladi.

7.3. Agar yengib bo'lmay kuch vaziyatlari va ularning oqibatlarini 10 (o'n) kalendar kunidan ko'proq amal qilishni davom ettirsa, Taraflar Shartnoma ijrosining har ikki Taraf uchun maqbul muqobil usullarini aniqlash va tegishli kelishuvga erishish maqsadida qisqa muddatda muzokaralar o'tkazishlari mumkin.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Mazkur Namunaviy shartlarda va Shartnomada hal qilinmagan barcha boshqa shartlar bo'yicha Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

8.2. Namunaviy shartlar predmeti Taraflarga to'liq tushunarli hisoblanadi. Mazkur Namunaviy shartlar asosida Shartnoma tuzilishi barcha oldingi arizalar, muhokamalar va yozma shakldagi kelishuvlarni bekor qiladi va Tomonlar bunday oldingi bayonotlar, muhokamalar va yozma kelishuvlarga tayanish huquqidan voz kechadilar. Namunaviy shartlarga barcha ilovalar ularning ajralmas qismlari hisoblanadi.

8.3. Merchant Shartnoma bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini To'lov tashkilotining tegishli yozma shakldagi roziligisiz uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

8.4. Taraflar bir Taraf tomonidan imzolangan, skanirlangan va boshqa Tarafga Shartnomaning tegishli bo'limida qayd etilgan elektron pochta manzillari bo'yicha yuborilgan Shartnoma, Namunaviy shartlar va Ilovalar hamda ularga qo'shimcha bitimlar nusxalari bilan almashinuvga yo'l qo'yadilar, bu orqali qayd etilgan hujjatlarning yuridik kuchini e'tirof qiladilar.

Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Elektron hujjat aylanish tizimlarida Taraflar tomonidan imzolanishida hujjatlarni tegishlicha rasmiylashtirilgan deb e'tirof qiladilar.

8.5. Taraflar mazkur Shartnoma ijrosi maqsadida qayd etilgan elektron pochta manzillari bo'yicha, shuningdek Telegram kanallar bo'yicha elektron shaklda bir-biriga yuborilgan barcha boshqa hujjatlar, bildirish xatlari, shikoyat xatlarining ham yuridik kuchini tan oladilar.

9. ILOVALAR RO'YXATI

1-sonli Ilova: To'lovlarni qabul qilishning o'zaro kelishilgan turlari.

2-sonli Ilova: Hisobot davri yakuniga qadar ko'rsatilgan xizmatlar Dalolatnomasi shakli.

3-sonli Ilova: Merchant tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati.

4-sonli Ilova: Shartnomalarni tuzishda va bajarishda tegishli ehtiyotkorlik choralarini ko'rish to'g'risida namunaviy shartlar

To'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaning Namunaviy shartlariga 1-sonli Ilova**TO'LOVLARNI QABUL QILISHNING O'ZARO KELISHILGAN TURLARI**

«CLICK» AJ to'lov tashkiloti, bundan buyon matnda – «CLICK» deb yuritiladi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yil 22 iyundagi 1-sonli lisenziyasi), mazkur Namunaviy shartlar asosida tuziladigan shartnomalarda aks ettiriladigan to'lovlarni qabul qilishning quyidagi usullarini belgilaydi:

TA'RIFLAR

Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida Taraflar quyidagi to'lovlarni qabul qilish usullaridan birini yoki bir nechtasini, ularning ta'rifini va ulanish tartibini tanlab olishlari mumkin:

To'lovlarni qabul qilish usuli	Ta'rifi va ulanish tartibi
1.1. Indoor	<p>Ushbu to'lovlarni qabul qilish usuli shuni nazarda tutadiki, Merchantda billing tizimi yo'q va uni joriy qilish Merchant uchun maqsadga muvofiq emas, shuningdek Merchantga joyida CLICK tizimi orqali to'lovni qabul qilish imkoniyatini taqdim qiladi. Ushbu usul tanlangan holatda CLICK quyidagi majburiyatlarni oladi:</p> <ol style="list-style-type: none">Merchant moduli shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish (https://merchant.click.uz);Xodimlarni CLICK tizimi interfeyslaridan foydalanishga o'rgatish;QR kodli va identifikator bilan axborot materialini taqdim qilish. <p>Bunda, Merchant QR kodli va Merchant identifikatori bilan axborot materialining kassa oldida yoki hisob-kitoblar amalga oshiriladigan boshqa punktda joylashtirilishini ta'minlash majburiyatini oladi, shu tufayli ushbu Merchant mijozlarida Merchant foydasiga, shuningdek CLICK savdo markasini rivojlantirish maqsadida to'lovni amalga oshirish imkoniyati bo'ladi.</p>
1.2. In-door Billing	<p>Ushbu to'lovlarni qabul qilish usuli shuni nazarda tutadiki, Merchantda hisobga olish tizimi CLICK tizimi bilan integratsiyalangan, shuningdek Merchantga joyida CLICK tizimi orqali to'lovni qabul qilish imkoniyatini taqdim qiladi. Ushbu usul tanlangan holatda CLICK quyidagi majburiyatlarni oladi:</p> <ol style="list-style-type: none">Merchant moduli shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish (https://merchant.click.uz);Xodimlarni CLICK tizimi interfeyslaridan foydalanishga o'rgatish;Integratsiya uchun shaxsiy identifikatsiyalash va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilish. <p>Ushbu usul veb-saytda va (yoki) boshqa hisobga olish tizimida yoki ilovalarda va (yoki) tovar cheklarida va (yoki) Merchant bilan kelishilgan boshqa joylarda To'lov tashkilotining logotipini QR kod shaklida yoki boshqa shunday tanish belgisi shaklida joylashtirish bilan birga amalga oshirilishi mumkin, shu tufayli ushbu Merchant mijozlarida Merchant foydasiga, shuningdek CLICK savdo markasini rivojlantirish maqsadida to'lovni amalga oshirish imkoniyati bo'ladi.</p> <p>Merchant To'lovlarni va (yoki) boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (Foydalanuvchilarga hisobvaraqlarni taqdim qilish va boshqa operatsiyalar) uchun so'rovnomalarni shakllantirish maqsadida ushbu shaxsiy</p>

	<p>identifikatsiyalash ma'lumotlaridan faqat CLICK tizimida o'z ishi uchun foydalanish va ularni boshqa shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.</p>
1.3. CLICK-PASS	<p>Ushbu to'lovlarni qabul qilish usuli shuni nazarda tutadiki, Merchant foydasiga to'lovni amalga oshirish maqsadida Merchantda QR, BAR va boshqa analogik kodlarni skanirlash uchun tegishli uskunalar mavjud. Ushbu usul tanlangan holatda CLICK quyidagi majburiyatlarni oladi:</p> <ol style="list-style-type: none">Merchant moduli shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish (https://merchant.click.uz);Integrasiya uchun shaxsiy identifikatsiyalash va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilish;Xodimlarni CLICK tizimi interfeyslaridan foydalanishga o'rgatish. <p>Ushbu usul Merchant savdo maydoni hududida To'lov tashkilotining logotipini yoki boshqa tanish belgisini, shu jumladan, CLICK savdo markasini rivojlantirish maqsadida joylashtirish bilan birga amalga oshirilishi mumkin.</p>
1.4. Billing	<p>Ushbu to'lovlarni qabul qilish usuli shuni nazarda tutadiki, Merchantda billing tizimi mavjud. Ushbu usul tanlangan holatda CLICK quyidagi majburiyatlarni oladi:</p> <ol style="list-style-type: none">Integrasiya bo'yicha hujjatlarni taqdim qilish https://docs.click.uz/;Integrasiya uchun shaxsiy identifikatsiyalash va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilish;Merchant moduli shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish (https://merchant.click.uz);Xodimlarni CLICK tizimi interfeyslaridan foydalanishga o'rgatish;CLICK tizimini Merchant billing tizimi bilan integratsiyalash bo'yicha konsultasiya yordamini ta'minlash. <p>Merchant To'lovlarni va (yoki) boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (Foydalanuvchilarga hisobvaraqlarni taqdim qilish va boshqa operatsiyalar) uchun so'rovnomalarni shakllantirish maqsadida ushbu shaxsiy identifikatsiyalash ma'lumotlaridan faqat CLICK tizimida o'z ishi uchun foydalanish va ularni boshqa shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.</p>
1.5. Click One platformasidagi ilova	<p>Ushbu to'lovlarni qabul qilish usuli shuni nazarda tutadiki, Merchantda yuqoridagi 1.1-1.4-bo'limlarda qayd etilgan usullardan biri ulangan. Ushbu usul tanlangan holatda CLICK quyidagi majburiyatlarni oladi:</p> <ol style="list-style-type: none">Integrasiya va API bo'yicha hujjatlarni taqdim qilish;Integrasiya uchun shaxsiy identifikatsiyalash va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilish;Merchant moduli shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish (https://merchant.click.uz);Xodimlarni CLICK tizimi interfeyslaridan foydalanishga o'rgatish. <p>Merchant To'lovlarni va (yoki) boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (Foydalanuvchilarga hisobvaraqlarni taqdim qilish va boshqa operatsiyalar) uchun so'rovnomalarni shakllantirish maqsadida ushbu shaxsiy identifikatsiyalash ma'lumotlaridan faqat CLICK tizimida o'z ishi uchun foydalanish va ularni boshqa shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi.</p>

To'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaning Namunaviy shartlariga 2-sonli Ilova

**HISOBOT DAVRI YAKUNIGA QADAR KO'RSATILGAN XIZMATLAR DALOLATNOMASI
SHAKLI**

Toshkent sh.

«___» _____ 2024 yil

20 yil «___» _____dagi «___»-sonli Shartnomaga

20 yil «___» _____dagi «___»-sonli

Bajarilgan ishlar DALOLATNOMASI

«CLICK» AJ to'lov tashkiloti, bundan buyon matnda – «CLICK» deb yuritiladi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yil 22 iyundagi 1-sonli lisenziyasi), HUJJAT asosida faoliyat yurituvchi LAVOZIMI F.I.Sh. nomidan, bir tomondan va

NOMI, bundan buyon matnda – «MERChANT» deb yuritiladi, HUJJAT asosida faoliyat yurituvchi LAVOZIMI F.I.Sh. nomidan, ikkinchi tomondan 20 yil «___» _____dagi «___»-sonli Shartnomaga asosan «CLICK» AJ to'lov tashkiloti to'liq hajmda xizmatlar ko'rsatganligi to'g'risida mazkur Dalolatnomani imzoladilar.

To'lov tashkiloti tomonidan _____ davr mobaynida To'lovchilardan 00000 (harflar bilan) so'm miqdorida to'lovlar ishlandi _____.

To'lov tashkilotining haqi _____ so'mni tashkil qiladi (muvaffaqiyatli amalga oshirilgan to'lovlar summasidan X%).

Ushbu orqali Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari ijrosiga doir bir-biriga hech qanday e'tirozlari yo'qligini tasdiqlaydilar.

TO'LOV TASHKILOTI**MERCHANT**

LAVOZIMI, F.I.Sh.

LAVOZIMI, F.I.Sh.

Imzo
M.O'._____
Imzo
M.O'.

To'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaning Namunaviy shartlariga 3-sonli Ilova

MERCHANT TOMONIDAN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 15-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni talablari tartibida Merchant tomonidan taqdim qilinadigan **HUJJATLAR RO'YXATI**:

- 1.1.2. **Tashkilot Ustavi nusxasi (yoki ijroiya organ vakolatlari muddati to'g'risida axborot, pochta manzili va ta'sischilar ro'yxati qayd etilgan ko'chirma);**
- 1.1.3. **Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma nusxasi;**
- 1.1.4. **Tashkilot rahbarini saylash (tayinlash) to'g'risida qaror;**
- 1.1.5. **Merchant faoliyati lisenziyalanishi talab qilingan holatda, lisenziya nusxasi;**
- 1.1.6. **Shartnomani imzolayotgan shaxs vakolatnomasi, agar Tashkilot rahbari tomonidan imzolanmasa.**

Biron-bir sababga ko'ra, To'lov tashkiloti Internet tarmog'i bo'yicha Merchantning soliq organlarida hisobga qo'yilganligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmagan holatda, u qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Hujjatlar Merchant tomonidan corp@corp.click.uz elektron manzil bo'yicha vakolatli shaxs imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan skanirlangan nusxalar shaklida taqdim qilinadi.

SHARTNOMALARNI TUZISHDA VA BAJARISHDA TEGISHLI EHTIYOTKORLIK CHORALARINI KO'RISH TO'G'RISIDA NAMUNAVIY SHARTLAR

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri
2024 yil "09" sentabrdan e'tiboran amal qiladigan "2.0"-sonli versiyasi

«CLICK» AJ to'lov tashkiloti, bundan buyon matnda – «CLICK™» deb yuritiladi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor U.Sh. Rustamov nomidan, bir tomondan

va

CLICK™ oldida har qanday shaklda tuzilgan shartnoma, shu jumladan, biroq cheklanmagan holda: yozma shaklda tuzilgan shartnoma; elektron shaklda tuzilgan shartnoma; ofertani akseptlash orqali tuzilgan shartnoma, shu jumladan CLICK™ rasmiy veb-saytida joylashtirilgan ommaviy shartnoma natijasida yuzaga kelgan o'zaro majburiyatlarga ega har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, ikkinchi tomondan,

birgalikda «Taraflar», alohida esa «Taraf» deb yuritiladi,

tuziladigan shartnoma (bundan buyon matnda – "Shartnoma") doirasida quyida qayd etilgan talablarni o'zaro tegishli ravishda bajarish to'g'risida kelishuvga erishdilar, bu haqda ular Taraflarning o'zaro munosabatlari uchun asos hisoblangan shartnoma shakli doirasida xabardor qilingan:

1. Maxfiylik

1.1. Taraflar tijorat sirini o'z ichiga olgan axborot maxfiyligi (bundan buyon matnda – "Maxfiy axborot") to'g'risidagi masalaning muhimligini tushunishlarini tasdiqlaydilar va quyidagi majburiyatlarni qabul qilishga rozilik bildiradilar:

- Maxfiy axborot Oluvchi taraf tomonidan Oshkor qiluvchi tarafdin Shartnoma predmetiga muvofiq og'zaki va yozma shaklda har qanday moddiy, elektron yoki boshqa axborot tashuvchilarda olingan, shuningdek har qanday uskunadan foydalanib vizual ko'rsatilgan har qanday axborotni o'z ichiga oladi;

- Shartnoma tuzilgan sanadan e'tiboran 3 (uch) yil mobaynida Oluvchi taraf Oshkor qiluvchi tarafdin olingan Maxfiy axborotni har qanday boshqa shaxsga, korxonaga, tashkilotga oshkor qilmaydi va ushbu axborotdan o'z shaxsiy foydasi uchun foydalanmaydi, Shartnoma predmetida belgilangan maqsadlar bundan mustasno;

- Oluvchi taraf ushbu Maxfiy axborotning oshkor qilinishi yoki noqonuniy foydalanilishidan saqlanish maqsadida, uni o'z shaxsiy Maxfiy axborotiga nisbatan oqilona darajada rioya qiladigan ravishda yuqori darajali maxfiyligiga rioya qiladi.

1.2. Maxfiy axborot, agar quyidagi bandlardan biriga javob bersa, maxfiy hisoblanmaydi va Oluvchi taraf ushbu axborot yuzasidan hech qanday majburiyatlarga ega bo'lmaydi:

- Oluvchi tarafga bungacha ma'lum bo'lgan;
- ommaviy ma'lum bo'lgan yoki Oshkor qiluvchi tarafning noto'g'ri, e'tiborsiz yoki qasddan amalga oshirilgan harakatlari natijasida ommaviy ma'lum bo'lgan holatda;
- uchinchi tomondan cheklanishlarsiz va Shartnoma shartlari buzilmagan holda qonuniy olingan;
- Oshkor qiluvchi taraf tomonidan uchinchi tomonga uning huquqlari analogik cheklanishlarsiz taqdim qilingan;
- Oluvchi taraf tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan, uni ishlab chiqqan shaxs yoki shaxslar Maxfiy axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan holatda;
- Oshkor qiluvchi tarafning yozma shakldagi ruxsati bilan e'lon qilishga ruxsat berilgan;
- amaldagi qonun hujjatlariga asosan davlat hokimiyat organlariga va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek boshqa davlat organlariga ularning asoslangan talabiga binoan oshkor qilingan. Bunda, Oluvchi taraf Maxfiy axborot taqdim qilingan davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish

organlaridan, shuningdek boshqa davlat organlaridan ushbu axborot maxfiylikini saqlash bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishini talab qilishga haqli.

1.3. Oluvchi taraf uning aybi bilan va Shartnoma shartlari buzilgan holda yuz bergan Maxfiy axborotning oshkor qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar uchun Oshkor qiluvchi taraf oldida to'liq javobgar bo'ladi, shu jumladan, Oluvchi taraf Maxfiy axborotning uchinchi shaxslarga oshkor qilinishiga olib kelgan o'zining barcha xodimlari harakatlari uchun (Maxfiy axborot oshkor qilinishi paytida bunday xodimlar ishdan bo'shatilgan holatda ham) so'zsiz javobgar bo'ladi.

Oluvchi taraf tomonidan Oshkor qiluvchi tarafdan Maxfiy axborotni oshkor qilish uchun yozma shaklda ruxsat olinmagan holda, Maxfiy axborot uchinchi shaxslarga oshkor qilingan holatda, Oluvchi taraf Oshkor qiluvchi tarafga Maxfiy axborotning bunday oshkor qilinishi natijasida yetkazilgan zararlar o'rnini to'ldirish majburiyatini oladi.

1.4. Taraflarning hech biri boshqa Tarafning oldindan roziligisiz shartnoma mavjudligi faktini oshkor qilmaydi. Taraflardan biri qayta tashkil qilingan yoki tugatilgan holatda, amaldagi fuqarolik qonun hujjatlariga asosan qayta tashkil qilinayotgan yoki tugatilayotgan Taraf Maxfiy axborotning tegishlicha saqlanishini ta'minlash uchun imkon darajada barcha choralarni ko'rishi kerak.

Oluvchi taraf Oshkor qiluvchi tarafga Oluvchi taraf tomonidan yo'l qo'yilgan yoki unga ma'lum bo'lgan Maxfiy axborotni oshkor qilish fakti yoki oshkor qilinish xavfi, uchinchi shaxslar tomonidan Maxfiy axborotning noqonuniy olinishi yoki qonunga zid ravishda foydalanish holatlari to'g'risida darhol ma'lum qilishi shart.

Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shart

1.5. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlar yoki vositachilar har qanday shaxslarga ular harakatlariga yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish uchun bevosita yoki bilvosita har qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho narsalarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va to'lashga ruxsat bermaydilar.

1.6. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlar yoki vositachilar Shartnoma maqsadlarida qo'llaniladigan qonun hujjatlarida pora berish / pora olish, tijorat maqsadida pora berib sotib olish sifatida tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (o'zlashtirishga) qarshi kurashish to'g'risida qo'llaniladigan qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar.

1.7. Tarafda mazkur bo'limning biron-bir qoidasi buzilishi yuz berganligiga yoki yuz berishi mumkinligiga shubhalar paydo bo'lgan holatda, tegishli Taraf bu haqda boshqa Tarafni yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi. Ushbu bildirish xatida Taraf kontragent, uning affillangan shaxslari, xodimlar yoki vositachilar tomonidan Shartnoma maqsadlarida qo'llaniladigan qonun hujjatlarida pora berish yoki pora olish, tijorat maqsadida pora berib sotib olish sifatida tasniflanadigan harakatlarda, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (o'zlashtirishga) qarshi kurashish to'g'risida qo'llaniladigan qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarda ifodalanadigan mazkur moddaning biron-bir qoidasi buzilishi yuz berganligi yoki yuz berishi mumkinligini asosli tasdiqlaydigan yoki buni taxmin qilishga asos beradigan faktlarga havola qilishi yoki tegishli materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma shaklda xabardor qilinganidan so'ng tegishli Taraf qoida buzilishi yuz bermaganligi yoki yuz bermasligi tasdig'i olingungacha Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosini to'xtatib qo'yishga haqli. Ushbu tasdiqnoma bildirish xati yuborilgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kuni mobaynida yuborilishi kerak.

1.8. Taraflarning biri tomonidan mazkur bo'limda taqiqlangan harakatlardan saqlanishga doir majburiyatlar buzilgan va (yoki) boshqa Taraf tomonidan Shartnomada belgilangan muddatda qoida buzilishi yuz bermaganligi yoki yuz bermasligi to'g'risida tasdiqnoma olinmagan holatda, boshqa Taraf Shartnomani bekor qilish to'g'risida bildirish xatini yuborgan holda, bir tomonlama tartibda Shartnomani to'liq yoki qisman bekor qilishga haqli.

Vaziyatlar to'g'risida ishonchnoma

1.9. Taraflar quyidagi vaziyatlar asoslanganligi to'g'risida bir-birini ishontiradilar:

1) Taraflar tegishli ravishda ta'sis qilingan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida faoliyat

yurituvchi va qonun hujjatlarining barcha talablariga javob beradigan tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi;

2) Taraflar Shartnoma tuzish va uni bajarish uchun kerakli barcha lisenziyalarga, ruxsatnomalarga va boshqa hujjatlarga ega;

3) Taraflar faktlar (tegishli faktlar majmui) to'g'risida, soliq va (yoki) buxgalteriya hisobida yoki soliq hisobotida aks ettiriladigan soliq solinadigan ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlar buzib ko'rsatilishi natijasida, shu jumladan, biroq cheklanmagan holda, maxsus soliq solish rejimlari noqonuniy qo'llanilishiga qaratilgan "biznesni maydalash" sxemasini tashkil qilish; pasaytirilgan soliq stavkalaridan, soliq imtiyozlaridan foydalanish, soliq solinishidan ozod qilinish bo'yicha shart-sharoitlarni sun'iy yaratishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish; ikki tomonlama soliq solinishidan saqlanish to'g'risida xalqaro shartnomalar normalarining noqonuniy qo'llanilishiga qaratilgan sxemalarni yaratish; Taraflar tomonidan bitimlar (operasiyalar) ijrosining haqiqatga to'g'ri kelmasligi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatiga nazorat ostidagi shaxslarni jalb qilish bilan bog'liq tovarlar (xizmatlar, ishlar, mulkiy huquqlar) realizasiya qilinishidan olinadigan daromadni (tushumni) aks etirmaslik, shuningdek buxgalteriya va soliq hisobida soliq solinadigan ob'ektlar to'g'risida qasddan noto'g'ri axborotni aks ettirish orqali soliq bazasi va (yoki) soliq to'lanadigan summa kamaytirilishini hozirda amalga oshirmaydilar va Shartnomani bajarish davomida ham amalga oshirmaydilar;

4) Shartnoma bo'yicha bitimlarni (operasiyalarni) amalga oshirishdan asosiy maqsad soliq summasini to'lamaslik (to'liq to'lamaslik) va (yoki) hisobga olish (qaytarish) hisoblanmaydi;

5) Shartnoma bo'yicha bitimlar (operasiyalar) bo'yicha majburiyatlar shartnoma Tarafi hisoblangan shaxs tomonidan va (yoki) shartnomaga yoki qonunga asosan Shartnoma bo'yicha bitimlar (operasiyalar) ijrosi bo'yicha majburiyatlar yuklatilgan shaxs tomonidan bajarilmoqda va bajariladi;

6) Taraflar ichki hujjatlari, xo'jalik faoliyatining qoidalari va normalari aniqlanmagan yoki vakolatsiz shaxs tomonidan birlamchi hisob hujjatlari imzolinishini, Taraflar kontragenti tomonidan soliq va yig'imlar to'g'risida qonun hujjatlari buzilishini, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar (operasilar) amalga oshirilishida xuddi shunday iqtisodiy faoliyat natijasini olish imkoniyati mavjudligini istisno qiladi.

1.10. Taraflar yuqorida qayd etilgan vaziyatlar to'g'risida ishonchnoma har ikki Taraf uchun jiddiy ahamiyatga ega ekanligini va Taraflar Shartnomani bajarishda ushbu vaziyatlar to'g'risida ishonchnomaga amalga qilishlarini belgilab oldilar.

Ushbu vaziyatlar to'g'risida ishonchnoma ma'lumotlari noto'g'ri bo'lgan, shuningdek Taraflarning biri tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq qonun hujjatlari talablari, shu jumladan soliqlarni o'z vaqtida deklarasiya qilish va to'lash, asoslangan soliq hisobotini taqdim qilish, soliq qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish sohasidagi talablar tegishli ravishda bajarilmagan holatda, Taraf boshqa Tarafga yetkazilgan, shu jumladan Tarafning unga tegishli soliqlar summalari o'rni to'ldirilishini rad qilishi, soliqlar ortiqcha hisoblab yozilishi, penyalar hisoblab yozilishi, jarimalar solinishi natijasida yuzaga kelgan zararlar va xarajatlarning to'liq hajmda o'rnini to'ldirishi shart. Yuqorida qayd etilgan qoidalar boshqa barcha majburiy to'lovlarga nisbatan ham qo'llaniladi.